

Ekologiya va suv resurslarini boshqarish



Xamidov Avaz Odilovich

Ekologiya va suv resurslarini boshqarish kafedrasi assistenti

Tel.: +99871-237-19-26

Email: a.xomidov@tiiame.uz

staff.tiiame.uz

"Ekologiya va suv resurslarini boshqarish" kafedrasi tarixi 1953 yilda tashkil etilgan "Qishloq va yaylovlar suv ta'minoti" bilan bog'liq. Kafedraning birinchi mudiri davlat mukofoti lauriyati dotsent A.N. Lyapin edi. Kafedraga 1956-1958 va 1960-1970 yillar davomida dotsent P.P Amanatskiy, 1976-1980 yillar davomida dotsent G. G. Podgornov, 1980-1983 yillar davomida dotsent V.A. Demin va 1983-1988 yillar davomida dotsent I. M. Maximova mudirlik qilganlar. Turli yillar davomida kafedrada dotsentlar A. A. Isaev, S. S. Xojaev, katta o'qituvchilar R. M. Muhiddinova, D.Yu. Djumaev, assitentlar S.K. Malysheva va S. B. Mechetner mehnat qilganlar. "Suv resurslaridan mukammal foydalanish va muhofaza qilish" kafedrasi 1979 yilning sentyabrida "Gidrogeologiya" kafedrasidan ajralib chiqdi va uning birinchi mudiri geologiya - mineralogiya fanlari doktori, professor Mirzaev S. Sh bo'ldi. Kafedrada dotsentlar S.A. Murakaeva, R. N. Muxitdinova, katta o'qituvchilar S. A. Anorboev va T. A. Azimovlar mehnat qilishdi. Gidromelioratsiya fakul'teti tarkibida 1989 yili "Suv resurslaridan mukammal foydalanish va muhofaza qilish" hamda "Qishloq xo'jalik suv ta'minoti" kafedralarini birlashtirilishi asosida O'zbekiston Respublikasi xizmat ko'rsatgan fan arbobi, professor Sayidraxmon Shoabdievich Mirzaev raxbarligida "Suv resurslaridan mukammal foydalanish va qishloq xo'jaligi suv ta'minoti" nomi bilan tashkil qilingan. Respublikamiz xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida shu jumladan oliy ta'lif tizimida izchil islohotlar olib borilayotgan sharoitda, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" vazifalaridan kelib chiqib, institutda suv va qishloq xo'jaligi uchun ekolog mutaxassislar tayyorlashni tashkil qilinishi munosabati bilan 2000 yili 1- sentyabrdan kafedraning nomi "Ekologiya va suv resurslari" deb o'zgartirildi. Turli yillarda kafedrada professor K.G. G'aniev, dotsentlar A.Azimov, A.X.Karimov, O.Y. Jalilova, assitentlar A.A. Baraev, Z. Jo'raev, J. Murotov, I.Abdullaev va boshqalar mehnat qilganlar. O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 3 sentyabrdagi 415- sonli «Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti» ni tashkil etish to'g'risidagi qarori, kun tartibiga qo'yilgan yangi vazifalar va xalqaro integratsiya talablaridan kelib chiqqan holda kafedraning nomi "Ekologiya va suv resurslarini boshqarish" deb o'zgartirildi. Ushbu kafedrada uzoq yillar kafedra asoschisi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi professor, g.m.f.d. Mirzaev Sayidraxmon Shoabdievich raxbarlik qilgan, ulardan keyin shogirdlari professor, t.f.d Saloxiddinov Abdulkakim Temirxo'jaevich, va 2019 yildan boshlab texnika fanlari nomzodi, dotsent Karimov A.X. rahbarlik qilmoqda. Kafedra Gidromelioratsiya fakul'tetida eng ilmiy salohiyati yuqori bo'lgan kafedra bo'lib hisoblanadi. Chunonchi, kafedrada 5 nafar professor, shulardan prof. Egamberdiev N.B. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan ixtirochi va ratsionalizator, prof. b.f.d. Karimov B.K., prof. b.f.d. Ismoilxodjaev B.Sh., prof. Radkevich M.V. faoliyat ko'rsatmoqda. Shu bilan birgalikda bir nafar xorijiy mutaxasis/ pedagog PhD Sania Ilyas (Pokiston), 8 nafar dotsent, 2 nafar katta o'qituvchi, 5 nafar assistent va 3 nafar stajyor o'qituvchi mehnat qilmoqda. Shuningdek kafedrada o'rindoshlik asosida sohaning yetuk olimlaridan 1 nafar professor 5 nafar dotsent faoliyat ko'rsatmoqda. Yuqori malakali mutaxassisliklarni

tayyorlashda Prof., g.m.f.d. Abdullaev B.D., xalqaro tajribaga yega PhD D.R. Ziganshina, t.f.n. I.M. Maxmudova, PhD X. Boboev, t.f.n. S. Mamatov, t.f.n. X. Nazarov, dotsentlar M.N.Abdukodirova va R.K.Boirov, katta o'qituvchilar S.A. Mamatov va A.A. Alimjanov, assistentlar A. Xamidov, R. Razzakov, M. Raximova, J.Mirzaqobulov, K.Shipilova, va stajyor o'qituvchilar Nasibov B., Shoergasheva Sh. va Z. Sharipjonova katta xissa qo'shib kelmoqdalar. Bugungi kunda bakalavriaturaning 5450700- Suv taminoti muxandislik tizimlari, 5630101- Ekologiya va atrof muhit muhofazasi (suv xo'jaligida) ta'lif yo'nalishlari hamda magistraturaning 5A450207-Suv resurslarini mukammal foydalanish va boshqarish, 5A630200-Suv xujaligida ekologiya xavfsizligi mutaxassisligi bo'yicha magistrantlar tahsil olmoqda. Kafedra yuqori ilmiy salohiyatga ega bo'lib, mavjud professor-o'qituvchilaridan 15 nafari xorijiy mamlakatlarda o'zlarini o'qituvchilik va ilmiy mahoratlarni oshirib kelganlar. Kafedrada doktorantura va mustaqil tadqiqotchilik yo'nalishlari bo'yicha shu kungacha 10 nafar fan doktori va 22 nafar fan nomzodlari tayyorlagan.

[Gidromelioratsiya fakulteti](#) [O'qitiladigan fanlar](#) [Ilmiy ishlar](#) [Tadqiqotchilar](#) [Hamkorlar](#) [Kafedra](#)
[xodimlari](#) [To'garaklar](#) [Dars jadvali](#) [Aloqalar](#)